Demak, ichki bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan to'ldirish, aholi bandligi va daromadlarining o'sishiga erishish uchun kichik biznes subyektlarini barqaror moliyaviy resurslar bilan ta'minlash muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli tahlil va yondashuv, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va umumlashtirish, ekspert baholash, o'zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik biznes loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda, asosan, quyidagi manbalardan foydalaniladi:

1. Davlat tomonidan moliyalashtirish;
2. Xususiy kapital hisobidan moliyalashtirish;
3. Bank kreditlari orqali moliyalashtirish;
4. Venchur moliyalashtirish;
5. Lizing;
6. Forfeyting;
7. Aralash moliyalashtirish va boshqalar.

Kichik biznes loyihalarini davlat tomonidan moliyalashtirish shakli, asosan, respublika va mahalliy budjetlar mablag'lari evaziga amalga oshiriladi. Bu jarayonda asosiy e'tibor milliy iqtisodiyot tarmoqlarining strategik ahamiyatiga qaratiladi. Ustuvor ahamiyatga molik tarmoqlardagi innovatsion loyihalarni moliyatirish orqali xalqaro maydondagi raqobatbardoshlik ta'minlanishi ko'zda tutiladi. Budjet mablag'larining innovatsion loyihalarga ajratilishi quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- davlat maqsadli dasturlarini amalga oshirish doirasida;
- istiqbolli innovatsion loyihalarni tanlov orqali tanlab olish asosida.

Bizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-noyabridagi "Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidasi"gi PF-193-son Farmoniga ko'ra Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJ shaklida qayta tashkil etildi. Kompaniyaning ustav fondi 300 mlrd. so'm miqdorida shakllantirildi. Belgilangan vazifalarni bajarish uchun kompaniyaga

10 yil muddatga 1,2 trln. so'm miqdorida foizsiz budjet ssudasi va xalqaro moliya institutlaridan 100 mln. AQSH dollari miqdorida mablag' jalb qilish maqsad qilingan.

Kompaniya mablag'laridan foydalanish bo'yicha tijorat banklari bilan tuziladigan vositachilik shartnomalariga muvofiq belgilangan limit hamda umumiy miqdor va shartlarga ko'ra kreditlar bo'yicha kafil bo'la oladi. 2024–2026-yillarda kichik biznes subyektlariga MB asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori va asosiy stavkaning 1,75 baravaridan oshmagan holda milliy valyutada 5 mlrd. so'mgacha ajratiladigan kreditlar bo'yicha asosiy stavkaning 40 foizigacha bo'lgan miqdorda 3 yilgacha bo'lgan muddatga kompensatsiya taqdim qilish imkoni berildi[7].

Korxonaning o'z mablag'lari (xususiy kapital) hisobiga innovatsion faoliyatni moliyalashtirish birmuncha murakkab masala hisoblanadi. Odatda kichik biznes tarkibiga kiritiluvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning innovatsion faoliyat bilan shug'ullanish uchun yetarli darajada mablag'lari bo'lmaydi. Aksariyat hollarda innovatsion faoliyatni olib borish yirik korxonalar, ya'ni aksiyadorlik jamiyati shaklidagi korxonalarda uchraydi. Aksiyadorlik jamiyati shaklidagi korxonada yirik hajmdagi moliyaviy mablag'larni jamlay olish va uni aynan innovatsion faoliyatga yo'naltirish imkoniyati oshadi. Shu bilan birga, bu shakldagi korxonalarda istiqbolli innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun qo'shimcha aksiyalar emissiyasini amalga oshirish imkoniyatlari mavjud. Bu yo'l bilan kredit resurslaridan foydalanish jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy xarajatlar birmuncha tejab qolinadi. Qimmatli qog'ozlarning qo'shimcha emissiyasi miqdorini aniqlash uchun quyidagi ko'rsatkichlar e'tiborga olinadi:

innovatsion loyihani amalga oshirish uchun moliyaviy resurslar hajmi;

kapital va dividend miqdorining kutilayotgan o'sish hajmi;

aksiyalarning joylashtirilishi natijasida emitent tomonidan olinishi kutilayotgan pul tushumlari hajmi.

Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish bo'yicha jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari tomonidan

6 https://lex.uz/docs/6767101
7 https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/kichik_va_urta_biznesni_qanday_qullab-quvvatlashadi

innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda asosiy e'tibor loyihaning oʻz-oʻzini qoplash muddatlariga qaratiladi. Aksariyat hollarda tijorat banklari innovatsion loyihaning oʻzini oʻzi qoplay olish muddatlari, uning toʻliq amalga oshirilishi muddatlaridan ozroq muddatga moʻljallangan loyihalarni moliyalashtirishdan manfaatdor boʻladilar. Bank kreditlari uchun foiz stavkalari kredit muddati, hajmi, loyihaning tavakkalchilik darajasi, qarz oluvchining moliyaviy holati va boshqa jihatlarni e'tiborga olgan holda belgilanadi. Xorijiy davlatlarda investitsion banklar tomonidan foiz stavkasini belgilashda mavjud bazis stavkalaridan foydalaniladi (LIBOR, LIBID va FIBOR).

Innovatsion loyihalarni venchur asosida moliyalashtirishning dastlabki bosqichlardanoq yuqori tavakkalchilik xatari mavjud boʻlib, investitsiyalashtirilgan jarayonlarning yakuniy natijalari amalga oshirilgandan keyin ijobiy samaraga erishilmagan taqdirda moliyalashtirilgan mablagʻlardan ajralib qolish holati kuzatilishi mumkin. Venchur kapitalining investorlari barcha mas'uliyat va moliyaviy xatarlarni tadbirkor bilan teng sheriklikda oʻz zimmalariga oladilar. Venchurli investitsiyalar, odatda, 5-7 yil davomida faoliyat koʻrsatadi. Innovatsion loyihani amalga oshirishni moliyaviy mablagʻlar bilan ta'minlashning quyidagi bosqichlari farqlanadi:

1) fondni (jamgʻarmani) yaratish;
2) kelishuvlarni amalga oshirish (shartnomalarni imzolash);
3) investitsiyalash;
4) investitsiyalashdan keyingi boshqaruv;
5) biznesdan chiqish jarayonini boshqarish2.

Moliyaviy lizing mulkni, bevosita moliyaviy ijara obyektini kelishilgan shartnomaga binoan oʻn ikki oydan ortiq muddatga egalik qilish va foydalanish huquqini berishda yuzaga keladigan ijaraviy munosabatlardir. Moliyaviy lizing quyidagi shartlarga javob berishi kerak:

moliyaviy lizing shartnomasining muddati tugagach moliyaviy ijara obyekti ijaraga oluvchining mulki boʻlib oʻtishi;

moliyaviy lizing shartnomasining muddati moliyaviy lizing obyekti xizmat muddatining 80 foizidan ortiq boʻlishi yoki moliyaviy lizing obyektining moliyaviy lizing shartnomasi tugaganidan keyingi qoldiq qiymati uning boshlangʻich qiymatining 20 foizidan kamrogʻini tashkil qilishi;

moliyaviy lizing shartnomasining muddati tugagach, ijaraga oluvchi moliyaviy lizing obyektini ushbu huquq sotilish kunidagi bozor qiymatidan ancha past narxda sotib olish huquqiga ega ekanligi va bunda lizing muddatining boshida ushbu huquqning sotilishiga asoslangan ishonchning mavjud boʻlishi;

moliyaviy ijara shartnomasi amal qiladigan davr uchun ijara toʻlovlarining diskontlangan joriy qiymati moliyaviy ijara obyektini ijaraga berish paytidagi joriy qiymatining 90 foizidan ortiq boʻlishi.

Moliyaviy lizing bir tomondan yuqori qiymatli asbob-uskunalarni koʻp sonli foydalanuvchilarga taqdim etish imkoniyatini, ikkinchi tomondan lizing oluvchilarning muayyan davrda yirik hajmdagi xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.

Forfeyting tijorat kreditining bank kreditiga aylanishi bilan bogʻliq operatsiya hisoblanadi. Bu operatsiyaning mohiyati quyidagilarda ifodalanadi: forfeyting operatsiyalarida ishlatiladigan moliyaviy vositalar banklardagi an'anaviy savdo veksellari hisob-kitoblari kabi qoʻllaniladi. Farqi shundaki, veksel egasi yagona import qiluvchi sifatida forfeytingda tavakkalchilik bilan bogʻliq boʻladi. Oddiy hisob-kitobda esa veksel qonunchiligiga binoan koʻpgina hollarda qarzdorlik javobgarligi eksport qiluvchining xaridorni kreditlashni uzaytirishiga imkon beradi. Bankning forfeyting operatsiyalari boʻyicha tavakkalchilikni oʻz zimmasiga olishi investorlarning oʻz mablagʻlarini uzoq muddatga qoʻshimcha joylashtirishga qiziqishlarini oshiradi. Forfeyting operatsiyalarida ishtirok etuvchi banklar uchun yevrovalyuta bozori moliyaviy vositalar bozori boʻlib hisoblanadi. Forfeyting boʻyicha kreditlash muddatlari, odatda, 1 yildan 7 yilgacha boʻlgan davrni tashkil etadi.

Umuman olganda, hozirgi davrda innovatsion iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini belgilaydigan hal qiluvchi omil – bu ilmiy tadqiqot va prinsip jihatidan yangi mahsulot turlarini yaratish uchun ishlanmalar natijalaridan foydalanish bilan bogʻliq boʻlgan mamlakatning innovatsion muhitini shakllantirish va rivojlantirish, mahsulotlarni ishlab chiqarishning yangi texnologiyalarini yaratish, ishlatish hamda keyinchalik bozorda joriy etish va realizatsiya qilishdir.

Kichik biznes loyihalarining aksariyat qismi investitsion va innovatsion xarakterda boʻlganligi sababli tijorat banklari tomonidan mazkur loyihalarni kreditlash amaliyotining alohida xususiyatlarini koʻrib chiqishga harakat qilamiz.

Tijorat banklari va ularning filiallari tomonidan mulkchilik shaklidan qat'i nazar xoʻjalik yurituvchi subyektlar va jismoniy shaxslarga investitsion kreditlar qaytarishlik, toʻlovlilik, ta'minlanganlik, muddatlilik va berilgan kreditlarni maqsadga muvofiq ishlatishlik tamoyillariga rioya qilingan holda shartnoma asosida beriladi. Ushbu ajratilayotgan kreditlar mijozning birlamchi hisob raqami ochilgan bank filialidan, ayrim hollarda ikkilamchi hisob raqami ochilgan bank filialidan berilishi mumkin.

Investitsion kreditlar – xoʻjalik yurituvchi subyektlarga yangi turdagi maxsulot va yangi texnologik jarayonlarini oʻzlashtirish, ishlab chiqarishni qayta tiklash va yangilash bilan bogʻliq tez qoplanuvchi va yuqori samara beruvchi tadbirlar uchun beriladi. Kreditdan foydalanishning aniq muddati kreditlanayotgan obyektlar boʻyicha mablagʻlarning aylanishi va harajatlar oqlanishi asosida belgilanadi.

Investitsion kreditlar ishlab chiqarish va ijtimoiy maqsadlarga mo'ljallangan obyektlarni qurish, qayta tiklash va texnik jihatdan kayta jixozlashga doir harajatlar bilan bog'liq investitsiya maqsadlari uchun 3 yil va undan ortiq muddatga beriladi.

Kapital qurilishi obyektlarini qayta ta'mirlash va texnologik jarayonlarni ishga tushirishni kreditlash quyidagi shartlar bajarilgandan keyingina amalga oshiriladi. Jumladan:

- loyiha-smeta hujjatlarini amaldagi andozalar(normativ) asosida va ushbu tartib shartlaridan kelib chiqqan holda kelishib tasdiqlash;
- davlat arxitektura nazorati yoki mahalliy hokimiyat organlarining barcha turdagi qurilish ishlarini amalga oshirish uchun yozma ruxsatnomasi;
- olinadigan yangi texnologiya va xomashyolarning shartnoma bilan ta'minlanganligi;
- bajariladigan ish va xizmatlar pudrati inflyatsiya holatlarini hisobga olgan hisob-kitobi va shartnoma bilan ta'minlanganligi;
- kredit oluvchi tomonidan taqdim qilingan iqtisodiy hisob-kitoblarning o'z-o'zini qoplashi to'g'risidagi ma'lumotlar bank tomonidan ekspertizadan o'tkazilganligi to'g'risidagi xulosalar;
- majmualar xo'jalik subyektlarining o'z manbalari hisobidan yoki loyiha qiymatining 25% tayyorgarligi mavjud bo'lgan taqdirdagina kreditlanadi;
- qurilish majmualari agar xo'jalik yurituvchi tomonidan oldin olingan kreditlaridan muddati o'tgani mavjud bo'lsa, u holda kreditlanmaydi;
- bank tomonidan berilgan kreditni o'z vaqtida to'liq qaytarilishini ta'minlash maqsadida kafolatnoma, garov yoki boshqa majburiyatlar olinadi.

Mijoz bankka uzoq muddatli (investitsion) kredit olish uchun murojaat qilganda bank bo'limining vakolatli xodimi (kredit inspektori) unga kreditni berish tartibi va shartlarini tushuntiradi. Kredit olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar ro'yxatini tuzadi, mijoz bilan kredit berish shartlarini kelishib oladi.

Kreditlarni rasmiylashtirish quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

kredit oluvchining xuquqiy statusi (darajasi)ni aniqlash uchun uning arizasini ko'rib chiqish;

kredit oluvchining moliyaviy holati va to'lovga layoqatini aniqlash;

kreditlanadigan majmualarning ekspertizasi;

kreditni rasmiylashtirib shartnoma tuzish.

Kredit oluvchining arizasini bank 10 kun muddat ichida ko'rib chiqib, kredit arizasi bo'yicha yozma xulosasini beradi.

Kredit oluvchining moliyaviy holati va to'lovga layoqatliligini aniqlash ishlari 15 bank ish kuni amalga oshirilishi shart. Istisno tariqasida yirik investitsion loyihalar bo'yicha hujjatlar 20 bank ish kuni davomida ko'rib chiqilishi mumkin.

Kreditni rasmiylashtirish mijoz tomonidan taqdim qilingan arizani ko'rib chiqish bilan boshlanadi. Kredit arizasida quyidagilar ko'rsatiladi:

so'ralayotgan kredit summasi va loyiha maqsadi;

muddati;

aktivlar summasining nisbati;

kreditlanayotgan majmuaning o'z-o'zini qoplash muddati;

asosiy qarz va foiz to'lovlarini qaytarish muddati;

kredit ta'minoti vositalari to'g'risidagi ma'lumotlar;

jalb qilingan (qarz) vositalari;

boshqa banklardagi hisob-varaqlari to'g'risidagi ma'lumot;

boshqa korxona, tashkilotlarda o'z mablag'i bilan qatnashishi.

Agar kreditlanayotgan majmua (obyekt) qurilish, ta'mirlash, texnologik qayta qurish ishlari bilan bog'liq bo'lsa, u holda mijoz tomonidan moliyaviy holati va kreditni qaytarish layoqatliligini hamda loyihani kompleks ekspertizadan o'tkazish uchun quyidagilar taqdim qilinadi:

loyihaning texnik-iqtisodiy hamda loyiha qiymati bo'yicha tegishli hujjatlarini o'rnatilgan tartib-qoidalarga muvofiq asoslash;

qurilish loyihasining moliyaviy nuqtayi nazardan qiymatini baholash, loyihaning moliyaviy baholash hisob-kitobi;

qurilishni chorak (yillar) bo'yicha bajarilishini kerak bo'lgan ishlarini o'rnatilgan tartib asosida tasdiqlash;

davlat arxitektura qo'mitasi tomonidan berilgan litsenziyaga ega bo'lgan mustaqil ekspertiza tashkilotining loyiha smeta hujjatlari bo'yicha ekspert xulosasi;

davlat ekologiya nazorati organlarining qurilish bo'yicha ekspert xulosasi;

loyiha summasi 50,0 mln so'mdan yuqori bo'lgan loyihalar bo'yicha pudrat tashkilotining tender tanlovidan o'tganligi to'g'risidagi hujjatlar to'plami;

to'lovga layoqatliligini aniqlash uchun mijozning oxirgi uch yildagi moliyaviy hisoboti;



IQTISODIYOT ЭКОНОМИКА ECONOMY

kreditni ta'minlanganligini tasdiqlovchi hujjatlar;

mahalliy hokimiyat organlari tomonidan yangi quriladigan uy va yerdan foydalanishga ruxsat berilganligini tasdiqlovchi hujjatlar.

Kreditdan foydalanganlik uchun mijoz bankka shartnoma asosida kreditning narxi, ya'ni foiz to'lovlarini to'laydi. Taraflarning kelishuviga muvofiq kreditning narxi pul bozoridagi holat va inflyatsiya ta'siri asosida kamayishi yoki ko'payishi mumkin.

Uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foiz stavkasi ularning muddati, kredit oluvchining kreditning o'z vaqtida qaytarish kafolatlari, kredit resurslariga bo'lgan talab va takliflar, bank narx siyosati hamda kredit xatarini hisobga olgan holda o'rnatiladi.

Foiz to'lovlari shartnomada ko'rsatilgan tartib va muddatda mijozning talab qilib olingungacha depozit hisob raqamidan memorial orderlar asosida shartnomaning ilovasi, ya'ni tarkibiy qismi bo'lgan asosiy qarz va foiz to'lovlarini qaytarish jadvaliga muvofiq undiriladi.

Kredit shartnomasi imzolangandan keyin mijozga ssuda hisob varaqasi ochiladi hamda barcha amaliyotlar kredit shartnomasi shartlaridan kelib chiqqan holda ssuda hisob varaqasi orqali amalga oshiriladi.

Ssuda hisob raqamidan bo'ladigan amaliyotlar kredit shartnomasi asosida obyekt loyiha qiymatidan kelib chiqqan holda loyiha tarkibiy qismlarining harajatlari yillik o'rnatilgan me'yordan oshmagan va belgilangan manzilli (adresli) ro'yxatlar asosida narxlar indeksiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ssuda hisob raqamidan to'lov hujjatlari asosida amalga oshirilgan ishlar, sotib olingan asbob va uskunalar hamda boshqa harajatlar loyiha doirasida amalga oshiriladi.

Markazlashtirilgan kreditlar hisobidan moliyalashtirilayotgan mablag'lar hisobidan berilayotgan bo'naklar pudratchilar tomonidan maqsadli ishlatilmagan taqdirda bank buyurtmachiga ushbu holat yuzasidan xabar beradi va davlat soliq organlari xuquqni ximoya qiluvchi organlarga belgilangan tartibda xabar beradi.

Ssuda hisob varaqasida to'lov foizlarini qaytarish jadvali mijoz hisob raqamiga pul oqimlarining kelib tushishiga qarab o'rnatiladi. Taraflarning kelishuviga muvofiq asosiy qarz va to'lov foizlarini qaytarish jadvaliga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Asosiy qarz va to'lov foizlarini o'z muddatidan oldin qaytarilishi mumkin. Bunday holda mijoz kreditdan haqiqiy foydalangan kunlari uchun foiz to'lovlarini to'laydi.

Bank mijozning kredit resurslaridan samarali va maqsadli foydalanishi bo'yicha quyidagi shakl va yo'nalishlar bo'yicha nazorat ishlarini olib boradi:

a) ssuda hisob varaqasidan to'lov topshiriqnomalari asosida o'tkazib berilgan mablag'larni obyekt loyiha qiymati va maqsadli ishlatishi bo'yicha mosligini nazorat qilish;

b) qurilish obyektiga chiqib, boshlang'ich buxgalteriya hisobi huj-jatlari asosida olingan kreditni maqsadli ishlatilishini nazorat qilish;

v) ishlarni bajarilganligi to'g'risida nazorat o'lchov ishlari va sotib olingan jihozlarni o'rnatilgan tartib qoidalar hamda kredit shartnomasi shartlari asosida inventarizatsiyadan o'tkazish.

Bank tomonidan moliyalashtirilayotgan obyektlar bo'yicha joyiga borib bajarilgan ishlar o'lchamini tekshiruvdan o'tkaziladi.

Bajarilgan qurilish-montaj ishlarini hajmi va qiymati ularning natura shaklida, buyurtmachi va pudratchi tashkilotlarining ma'lumoti hisob-kitob hamda loyiha-smetasi ko'rsatkichlari bilan mosligi tekshi-riladi.

Bajarilgan ishlar bo'yicha nazorat o'lchamini amalga oshirishdan oldin tijorat banki xodimlari qurilayotgan obyektlar bo'yicha hisob-kitoblarda noto'g'ri ma'lumotlar va qo'shib yozishlar bo'lgan yoki bo'lmaganligini quyidagilar asosida aniqlaydi:

- narxlar va tariflarni aniqlash, me'yorlangan harajatlar, mavjudligi yoki yo'qligi, xarajatlar me'yorining to'g'ri ishlatilganligi va belgilanganligi;
- arifmetik xatolar;
- qurilish-montaj ishlari qiymatiga bu bajariladigan ishlarga aloqador bo'lmagan harajatlarni qo'shib hisoblash (uskunalarni sotib olish, xizmat safarlari ish joyi bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurishi uchun qo'shimcha xaq to'lash va h.k ko'rinishida), loyiha qiymatiga kiritilmagan obyektlar bo'yicha bajarilgan ish va harajatlar;
- uskunalar bo'yicha defektlar.

Bank filiallari xodimlari tekshirish o'tkazilayotganda ushbu holatlarni to'liq o'rganib chiqishlari kerak. Yopiq holda bajarilgan ishlar (to'ldirilgan poydevor, pollar konstruksiyasi, avtomobil yo'llari, truboprovodlar o'tkazilgan xandaqlar va boshqalar) hajmi loyiha chizilmalari asosida aniqlanadi. Zarurat bo'lgan paytda bank bosh buyurtmachidan yopiq holda bajarilgan ishlar hajmini aniqlash uchun uni ochdirib ko'rish xuquqiga egadir.

Yagona baholash tarkibiga kiruvchi ishlar, ya'ni konstruksiyalarning ayrim qismlari ish turlari bo'yicha alohida to'lovlar hamda obyektga keltirib, ishlatilmagan xomashyo va konstruksiyalarni obyektdan alohida ajratib ko'rsatish bajarilgan ishlar qiymatini qo'shib yozish hisoblanadi.

Nazorat o'lchami tekshirishlaridan keyin dalolatnoma tuzilib, xaqiqiy bajarilgan ishlar qiymati qayta hisoblab chiqiladi va baholanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ko'plab mamlakatlarda kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda subsidiyalar, grantlar va imtiyozli kreditlar ajratish bo'yicha davlat dasturlari muhim rol o'ynaydi, ammo ular ko'p hollarda yetarli darajada mavjud emas yoki byurokratik jihatdan olish qiyin ekanligi ma'lum bo'ldi.

Kichik biznes egalari o'rtasida moliyaviy savodxonlikning yetarli emasligi natijasida moliyaviy boshqaruvda xatolarga yo'l qo'yishadi, investitsiyalarni jalb qilishda qiyinchiliklarga to'qnash kelishlari ma'lum bo'ldi.

Tijorat banklari tomonidan taklif etilayotgan kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining yuqoriligi kichik biznes subyektlari uchun qarz yukini oshib ketishiga sabab bo'lmoqda.

Kichik biznes subyektlari uchun garov obyekti va hujjatlari bo'yicha minimal talablar asosida bank mahsulotlarini yaratish, shuningdek, banklar uchun risklarni kamaytirish bo'yicha davlat kafolati dasturlarini ishlab chiqish lozim.

Hukumat tomonidan kichik biznes egalari uchun moliyaviy sovodxonlik va moliyaviy boshqaruv ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan ta'lim dasturlari va konsalting xizmatlarini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq.

Kichik biznes sohasiga sarmoya kiritadigan xususiy investorlar uchun soliq va boshqa imtiyozlarni kengaytirish, davlat subsidiyalari, kraudfanding yoki P2P kreditlash kabi muqobil moliyalashtirish modellaridan foydalanish orqali mikrokreditlar bo'yicha foiz stavkalarini pasaytirish zarur.

Banklar tomonidan nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlarni, balki kichik biznes sub'ketlarining biznes tarixi, bozordagi obro'si, raqamli makondagi faolligi va boshqa omillarni hisobga olgan holda ularning kreditga layoqatliligini baholash uchun yanada moslashuvchan va zamonaviy skoring modellarini joriy etish maqsadga muvofiq.

Banklar to'lov shartlari va imtiyozli davrlarni o'z ichiga olgan startaplar va innovatsion korxonalar uchun ixtisoslashtirilgan kredit mahsulotlarini ishlab chiqishi va taklif qilishi, shuningdek, loyihalar salohiyatini baholashda va rivojlanishning dastlabki bosqichlarida startaplarga kreditlar berish uchun akseleratorlar va inkubatorlar tajribasidan foydalanish kerak.

Bankning doimiy mijozlari uchun maxsus kreditlash shartlarini joriy etish orqali foiz stavkalarini pasaytirish va kreditlash limitlarini oshirish, kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha inqirozga qarshi dasturlarni ishlab chiqish, shuningdek, kreditlarni qayta tuzish va vaqtinchalik moliyaviy qiyinchiliklar yuzaga kelgan vaqtda imtiyozli davr yoki kredit ta'tilini taqdim etish maqsadga muvofiq.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati


1. Abdullaeva SH.Z. va boshq. Tijorat banklari kapitali va uni boshqarish. O'quv qo'llanma.–T.: IQTISOD-MOLIYA. 2017.–182 b.
2. Abdullaeva SH. Bank ishi. Darslik.-T.: Toshkent. 2003.-312 b.
3. Abdullaeva SH.Z. Bank risklari va kreditlash. -T.: Moliya. 2002.- 304 b.
4. Abdullaev YO., Qoraliev T., Toshmurodov SH., Abdullaeva S. Bank ishi. O'quv qo'llanma.-T.: IQTISOD-MOLIYA. 2009.–548 b.
5. Alaverdov A.A. Strategicheskiy menedjment v kommercheskom banke.-M.: Market DS. 2007.-576 s.
6. Liu Xiangfeng // SME Development in China: A Policy Perspective on SME Industrial Clustering. Institute for International Economic Research (IIER), National Development and Reform Commission (NDRC). – Report 2020–5, pp. 37–68.


### Internet manbalari


1. https://www.bankrate.com – маълумотлари асосида тайёрланди.
2. https://iz.ru – маълумотлари асосида тайёрланди.
3. https://www.norma.uz – маълумотлари асосида тайёрланди.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 8**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.